光驱 **guāngqū** CDD (CD-ROM). Compact Disk Driver axborotni o'qish tezligi bilan alohida xarakterlanadi. Bir birlik axborot o'qish tezligi sifatida sekundiga Kbayt axborot o'qish qabul qilingan bo'lib qolganlari shunga karrali qilib olinadi.

声卡 **shēngkǎ** tovush kartasi. Protsessordan chiqadigan signalni elektr signaliga aylantirib, kompyuterning tovush chiqaruvchi qismiga yuboradigan va keyin tovush kuchaytirgich yoki kolonkalarga yetkazib beruvchi qurilma.

硬盘 **yìngpán** qattiq disk (vinchester). Kompyuterda ishlash jarayonida qo'llaniladigan ma'lumotlarni doimiy xotirada saqlash uchun xizmat qiladi. Qattiq disk operatsion tizim dasturlari, matn muharrirlari, ko'p qo'llaniladigan dasturlar majmuasi, dasturlash tillari va hokazolar saqlanadi.

主板 **zhǔbǎn** tizimli plata. Kompyuterning asosiy platfo'rmasi bo'lib, boshqa elektron qurilmalar: mikroprotsessor, tezkor xotira, tizimli shina va boshqa qurilmalarning adapterlari ana shu platformaga o'rnatiladi.

显示器 **xiǎnshìqì** monitor (display). Kompyuter monitori ekranga matnli va grafik axborotni chiqarish uchun mo'ljallangan bo'lib bu tasvirlarni kompyuterning videokontrolleri shakillantirib beradi.

鼠标 **shǔbiāo** sichqoncha. Sichqoncha qo‘lning kaftiga sig‘adigan ikkita tugmachali moslama bo‘lib, uning yordamida kompyuter ekranidagi obyektlar ustida turli xil manipulyatsiyalarni bajarish, tugmachalar yordamida signallar kiritish mumkin.

扫描仪 **sǎomiáoyí** skaner. Skaner qurilmasi qog‘ozdagi matn, grafik, turli chizmalar (rasmlar) ko‘rinishidagi axborotni kompyuterga kiritish uchun xizmat qiladi.

数据机 **shùjù jī** modem. Kompyuter o‘zaro telefon tarmog‘i orqali axborot almashishini ta‘minlovchi qurilma. Modem kompyuterdan olingan raqamli signallarni telefon tarmog‘idan o‘tuvchi analogli signallarga aylantirish va aksincha telefon tarmog‘idan kelgan analogli signallarni raqamli signallarga o‘tkazib kompyuterga kiritish uchun xizmat qiladi.

内存 **nèicún** ichki xotira (DDR). Kompyuterning ishlash jarayonida bevosita kerak bo‘ladigan ma‘lumotlar saqlanadi. Ushbu xotira yuqori tezlikda ish bajargani uchun “tezkor xotira” deb ham nom olgan. Lekin ichki xotiradagi ma‘lumotlar kompyuter o‘chirilganda yo‘qoladi, ya‘ni o‘chib ketadi.

处理器 **chǔlǐqì** markaziy prosessor (CPU). “Central processing unit” Kompyuterning asosi hisoblash va boshqaruv elementi hisoblanadigan tranzistorli mikrosxema. U kompyuterning asosi y miyyasi deb ham yuritiladi.

优盘 **yōupán** flesh xotira. Bu energiyaga bog‘liq bo‘lmagan, yozish va o‘qish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan ixcham xotira turi hisoblanadi. Flesh xotiradagi axborot ishonchli. Flesh xotira kompyuterga USB porti orqali ulanadi.

显卡 **xiǎnkǎ** videoxotira. Videoxotiraga odatda videoadapter o‘rnatilgan bo‘lib, unda monitor ekraniga chiqarilishi lozim bo‘lgan axborot saqlanadi.

复印机 **fùyìnjī** nusxa ko‘chirish qurilmasi. Nusxa ko‘chirish qurilmasi qog‘ozdagi matn, grafik, turli chizmalar (rasmlar) ko‘rinishidagi axborotlardan nusxa ko‘chirishda foydalaniladi.

ALGOL-elektron hisoblash mashinlari uchun programmalar tuzishdagi universal (umumiy) til va umumiy simvolika.

BASIC beysik tili. BASIC “Beginner’s All-purpose Symbolic Instruction” so‘zlarning qisqartmasidan olingan. Beysik tili yuqori darajali algoritmik dasturlar qatoriga kiradi.

JPEG **JPEG** (JPG) – asosan fotosuratlar va rasmlar uchun ishlatiladi. JPEG formatida yuqori darajada siqilganligi tufayli, tasvir fayli hajmi sezilarli darajada kamayadi. Lekin bunda tasvir sifati yo‘qoladi. Bugungi kunda JPEG fotosuratlar va ko‘psonli ranglar ishlatilgan tasvirlar uchun eng yaxshi format sanaladi.

比特 **bǐ tè** –Kompyuterdagi ma’lumot birligi. U 0 yoki 1 qiymatni qabul qiladi. Lekin kompyuter buyruqlari bayt bilan ishlaydi. Ketma-ket sakkiz bit bir baytdan iborat.

自动编码 **zì dòng biān mǎ**-autokad dasturi. Kompyuter grafikasida loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi Autocad dasturidan foydalanib grafik axborotni kompyuterda bajarish o‘rganiladi.

电子邮件 **diàn zǐ yóu jiàn** –elektron pochta. Elektron pochta kompyuter tarmog‘i. Internet va boshqalar yordamida xabarlarni uzatish usuli. Axborotlar electron pochta qutisiga tushadigan va undan so‘ng o‘z manziliga yetkaziladgan, foydalanuvchilar uchun maxsus aloqa xizmat turi.

因特网 **yīn tè wǎng** - internet. Jahon bo‘yicha kompyuterlar tarmoqlaridan tuzilgan yaxlit tarmoq bo‘lib, unda yagona til andoza qoidalari majmuyi asosida axborot almashadilar. Uning nomi xalqaro tarmoq degan ma’noni anglatadi.

病毒 **bìng dú**-virus. Kompyuter viruslari kompyuter sistemalarida tarqalish va o‘z-o‘zidan qayta tiklanish xususiyatlariga ega bo‘lgan bajaruvchi yoki sharhlanuvchi kichik dasturlardir. Virusning obyektini buzish imkoniyati bo‘yicha quydagi turlarga ajratish mumkin: Zararsiz viruslar, xavfli viruslar, o‘ta havfli viruslar.

太字节 **tài zìjié**-kompyuter o‘lchov birligining hozirgi kunda eng kattasi bo‘lib, u 1024 gegabaytga teng.

吉字节 **jízìjié**- gegabayt. Kompyuter o‘lchov birliklaridan biri, 1024 megabaytga teng.

杀毒软件-antivirus dasturi. Kompyuter virusi yuqishining tezkor xotira va disklardagi viruslarni topib yo‘q qiladigan dastur.

浏览器 **liúlǎnqì**- brauzer. Internet tarmog‘i rivojlanib, unda foydalanishning yangi imkoniyatlari, ya‘ni ma‘lumotlarni tez va aniq ko‘rish, ma‘lumot almashinishining yengillashishini ta‘minlovchi dastur. Har bir brauzerning turli imkoniyatlari mavud.

II - Bob. Kompyuter atamalarining leksik - semantik tahlili

Hozirgi zamon xitoy tili kompyuter atamalarini leksik semantik tarafdin o‘rganish bir necha amaliy ishlarni bosqichma bosqich bajarilishini taqazo etadi.

Birinchi dan biz xitoy tilida kompyuterga oid bo‘lgan kitob, darslik gazeta¹⁸, jurnal¹⁹ va lug‘atlaridan shu sohaga oid atamalarni terib oldik. Saralab olishda biz ma‘lum mezonlar asosida ish yuritdik xususan hozirgi kunda ko‘p uchraydigan, amaliyotda muomalada bo‘lgan va o‘zimiz ma‘nosini tushunadigan so‘zlarni tanlab olishni afzal ko‘rdik.

Ikkinchi dan, terib olingan texnika atamalari ustidan kelib chiqish jihatdan turli statistik ishlarini olib bordik va natijalarini kerakli boblarga joylashtirdik.

Uchinchi dan eng og‘ir va muammolik ishlardan bu tasniflash jarayoni. Nimaga eng og‘ir va muammolik? Chunki atamalarni nafaqat xitoy tilidagi ma‘nosi, balki o‘zbek tilidagi ekvivalentini topish bir muncha mushkul masaladir. Sababi shu kungacha o‘zbek tilida kompyuter atamalari shakillangan deb bo‘lmaydi.

2.1. Leksik o‘zlashtirmalar orqali o‘zlashtirilgan kompyuter atamalari

O‘zlashtirmalar-bu o‘zga tillardan kirib kelgan so‘z va iboralardir. O‘zlashtirilgan kompyuter atamalari asosan internatsional hisoblanadi.

Internatsional-o‘zlashtirmalar ko‘pgina tillarda qo‘llanilayotgan til birikmalari hisoblanib umumfan atamashunosligining asosiy qismini tashkil qiladi. Bu V.V.Vinogradovning so‘zlariga kura, “dunyo sivilizatsiyasi og‘zaki fondini tashkil qiladi”. O‘zbek tilining kompyuter atamalari orasida ham internatsionalizmlar anchagina: assembler, bayt, bit, blog, brauzer, veb, vinchester, disketa, display,

¹⁸人民日报, 经济日报

¹⁹中国经济

drayver, emeyl, monitor. Bunday so'zlarning ko'payishida xalqlarning ilmiy va madaniy integratsiyasi katta ro'l o'ynaydi.

Internatsionalizmlarning xitoy tilida qachon paydo bo'lganligi va qanday tarqalganligi muhim emas, ularni ta'riflashda ahamiyatga molik jihat bu bir - biriga yaqin bo'lmagan, hatto bitta arealga tegishli bo'lmagan 3 tilda birdek mavjud bo'lishidir. Albatta, internatsional atamalarning asosiy qismi xitoy tilini "Yevropa-Amerika" areali bilan bog'laydi, ammo shunday muzlar borki, ular o'zbek tilini boshqa areallar bilan bog'laydi.

Leksik o'zlashtirmalar:

O'zlashtirma-internatsionalizmlar.

Transliterlanmagan o'zga til birikmalari .

Leksik o'zlashtirmalarda boshqa tildan so'zlarning nafaqat ma'nosi balk shakli ham o'zlashtiriladi

Transliterlanmagan o'zga til birikmalari leksik o'zlashtirmalarning natijasi hisoblanadi.

Kompyuter sohasida esa ingliz tilida Acer "kompyuter firmasi nomi", CD kompakt-disk, e-mail elektron pochta", i-Pad Apple firmasi plansheti, on-line, twitter atamalari ommaviy tarzda qollaniladi.

Xitoy tilida ham bunday guruhlar mavjud. Ularga kompyuter firmalari nomlari, programmalash tillari, informatsion texnologiyalari maxsulotlari.

AVI abbreviaturasi hitoy tiliga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib ingliz harflari bilan ishlatiladi. **AVI** - Audio Video Interactive (audio va video ketma ketligi). Masalan, 他展示了 AVI 文件生成代码的解析过程.

U AVI fayli tahlili jarayonini kursatdi.

Acer kompyuter firmasi nomi xitoy tiliga ingliz tilidan krib kelgan bo'lib ingliz alifbosi harflari bilan ishlatiladi:

我妈妈给我买了一台电脑是 Acer 牌子的.

Oyim menga Acer firmasi kompyuterini sotib olib berdi.

ALGOL atamasi xitoy tiliga ingliz tilidan olingan bo'lib, ALGOL - Algebraic Oriented Language programmalash tilidir.

我现在学习的是 ALGOL, COBOL 以及各种汇编语言.

Men hozir Algol, Kobol tillarini o'rganayapman.

BASIC atamasi xitoy tiliga ingliz tilidan olingan. Basic Programmalash tili.

BASIC 语言是大学必学的科目之一.

BASIC universitetda o'rganiladigan programmalash tillaridan biri.

JPEG atamasi xitoy tiliga ingliz tilidan olingan JPEG - Joint Photographic Experts Group.

请你把文件以 JPEG 格式发给我.

Menga JPEG formatidagi hujjatni yuboring, iltimos.

O'zlashtirmalar-bu o'zga tillardan kirib kelgan so'z va iboralardir. O'zlashtirilgan kompyuter atamalari asosan internatsional hisoblanadi.

Internatsional-o'zlashtirmalar ko'pgina tillarda qo'llanilayotgan til birikmalari hisoblanib umumfan atamashunodligining asosiy qismini tashkil qiladi. Bu V.V.Vinogradovning so'zlariga kura, "dunyo sivilizatsiyasi og'zaki fondini tashkil qiladi". O'zbek tilining kompyuter atamalari orasida ham internatsionalizmlar anchagina: assembler, bayt, bit, blog, brauzer, veb, vinchester, deskriptor, disketa, display, drayver, emeyl, monitor. Bunday suzlarning kupayishida halqlarning ilmiy va madaniy integratsiya katta ro'l o'ynaydi.

Internatsionalizmlarning xitoy tilida qachon paydo bulganligi va qanday tarqalganligi muhim emas, ularni ta'riflashda ahamiyatga molik jihat bu bir biriga yaqin bo'lmagan, hatto bitta arealga tegishli bo'lmagan 3 tilda birdek mavjud bo'lishidir. Albatta, internatsional atamalarning asosiy qismi xitoy tilini “evropa-amerika” areali bilan bog'laydi, ammo shunday muzlar borki, ular xitoy tilini boshqa areallar bilan bog'laydi. Masalan, xitoy tilida 比特 bǐ tè “bit” 博客 bó kè “blog”

比特 bǐ tè atamasi ingliz tilidagi bit “basic indissoluble information unit” dan kelib chiqqan-boshqa bo'linmaydigan birlik. Masalan

比特是计算机专业术语, 是信息量单位.

Bit -bu kompyuter atamasini, informatsion birligi.

博客 bó kè atamasi ingliz tilidagi blog atamasidan olingan.

我今天开通了自己的博客, 因为我想结识更多的朋友

2.2. Kal'kalashning semantik va etimologik usuli orqali yasalgan kompyuter atamalari

Semantik o'zlashtirish (kal'ka usuli).

Xitoy tilidagi zamonaviy atamashunoslik asosan o'zlashtirmalardan iborat bo'lgani bois, xitoy tilidagi kal'ka muammosi ham umuman o'zlashtirmalar sohasining, ham atamashunoslikni o'rganish vazifasining asosiy jabhalaridan biridir.

Xitoy tili zamonaviy atamashunosligining asosiy qismi turli xildagi kal'ka so'zlardan iborat. Tuzilish nuqtai nazaridan bu so'zlar xitoy leksik elementlaridan iborat. Paydo bo'lish manbai jihatidan bu so'zlar o'zlashtirmalardir.

Semantik o'zlashtirish o'ziga xos "tarjima bo'lib", bunda o'zlashtirayotgan tilda yangi so'z paydo bo'ladi. Yangi so'zning boshqa tilda mavjud bo'lgan so'z ta'sirida paydo bo'lishi kal'kaga o'ziga xos o'zlashtirish deb baho berishga imkon beruvchi belgidir. Biroq lingvistlar kal'kalarni o'zlashtirmalar yoki o'zlashtirmalarning bir turi deb atashdan qochadilar. Misol uchun L.A. Bulaxovskiy kal'kalarning o'ynaydigan roli o'zlashtirmalar roli bilan parallel deydi.²⁰ Blushfield bo'lsa, kal'ka muammosini o'zlashtirmalarga bag'ishlangan bo'limda ko'rib chiqadi va kal'kalarga xorijiy so'zlarning tarjimasini yoki boshqa tilda ifodalangan tushunchalarni yetkazib berish uchun ona tilidan so'zlarni tanlash, deb baho beradi.

Endi zamonaviy xitoy tili atamashunosligi misolida kal'kalarning asosiy turlari va guruhlarini ko'rib chiqamiz. Dastlab, quyidagini alohida ta'kidlash kerak: umumiy til so'zlari ham bir bo'g'inli, ham ko'p bo'g'inli bo'lishi mumkin.

Kal'ka- atamalarga keladigan bo'lsak, ular doimo ko'p bo'g'inlidir. Buning boisi shundaki, xorijiy atama ma'nosini yetkazib berish uchun bir qator ma'noli komponentlar kerak bo'ladi. Zamonaviy xitoy tilidagi barcha kal'ka atamalarni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. asl kal'kalar;

2. yarim kal'kalar

Asl kal'kalarga xorijiy atama ma'nosini ochib berishda barcha komponentlari ishtirok etuvchi atamalar kiradi. Yarim kal'kalar bu komponentlarning bir qismi (yoki bitta komponenti) atamaning ma'nosini ochib beruvchi, qolgan komponentlari bo'lsa atamaning talaffuziga ishora qiluvchi hamda mazkur so'z tarkibida o'z ma'nosiga ega bo'lmagan atamalardir. Kal'ka atamalariga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

自动编码 zì dòng biān mǎ

²⁰Булаховский Л.А. «Введение в языкознание», М., 1998г, 11-стр.

升级 shēng jí

电子邮件 diàn zǐ yóu jiàn

杀毒软件 shādúruǎnjiàn

硬盘 yìngpán

内存 nèicún

自动编码 zì dòng biān mǎ ingliz tilidagi autocode soʻzi kalkasi hisoblanadi. Xitoy tilida bu atamanini inglizcha auto-code soʻzi semantikasiga mos ravishda ikkita semantik komponentga boʻlish mumkin: 自动+编码 “avtomatlashtirilgan + kod”. Bu atamaning qoʻllanilishiga misol keltiramiz:

这是一家自动编码软件厂家.

Bu avtokod dasturini ishlab chiqaruvchi zavod.

升级 shēng jí inglizcha “upgrade” soʻzi kalkasi hisoblanadi. Toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilganda bu soʻz modernizatsiyani “yuqori daraja” bildiradi. Xitoy tilidagi variantda inglizcha up-grade soʻzi semantikasiga mos ravishda ikkita komponent mavjud: 升+级 “tepaga+daraja”.

电脑系统经过升级以后好用多了

电子邮件 diàn zǐ yóu jiàn elektron pochta inglizdagi e-mail soʻzining kalʼkasi hisoblanadi. Xitoy tili variantida ham ikkita “elektron+pochta” komponentlari mavjud va ular xitoy tilida 电子 + 邮件 lar bilan ifodalanadi.

公司职员每天上班的第一件事就是查看电子邮件.

杀毒软件 shādúruǎnjiàn antivirus dasturi. Ingliz tilidagi antivirus soʻzi kalʼkasi hisoblanadi. Xitoy tilida bu atamani inglizcha anti-virus soʻzi semantikasiga mos ravishda ikkita semantik komponentga boʻlish mumkin: 杀毒+

软件 “virusga qarshi + dastur (programma)”. Bu atamaning qo'llanilishiga misol keltiramiz:

宁可花多钱一定要买最好的杀毒软件。

Ko'p pul sarflab bo'lsa ham albatta eng yahshi antivirus dasturini sotib olish kerak.

硬盘 yìngpán qattiq disk (vinchester). Ingliz tilidagi “Hard disk” so‘zining kal’kasi hisoblanadi. Xitoy tili variantida ham ikkita Hard+disk komponentlari mavjud va ular xitoy tilida 硬+盘 “qattiq +disk” lar bilan ifodalanadi.

硬盘是电脑的一个重要部件之一。

Qattiq disk kompyuterning eng muhim qisimlaridan biridir.

内存 nèicún ichki xotira (DDR). Ingliz tilidagi “Internal memory” kal’kasi hisoblanadi. Xitoy tili variantida ham ikkita internal+memori komponentlari mavjud ular 内+存(ichki+xotira) lar bilan ifodalanadi.

Yarim kalkalar-bu qisman kalkalash usuli bilan vujudga kelgan so'zlar hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi “videokarta” so‘zi ingliz tilidagi videocard so‘zining qisman kalkasi hisoblanadi. Bunda so‘zning birinchi qismi (video) o‘zbek tiliga o‘zgarishsiz o‘tadi, ikkinchi qismi esa inglizcha card tarjimasini bo‘lib bu so‘zning kalkasi hisoblanadi.

Xitoy tilida qisman kalkalarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

因特网 yīn tè wǎng Internet inglizcha Internet ga aloqador bo‘lib, uning birinchi qismi (Inter) xitoy tilida tarjimasiz ifodalanadi: 因特 yīn tè ikkinchi qismi xitoycha 网 wǎng bilan tarjima qilinadi.

现在很多学生可以通过因特网获取学习资料.

Shuningdek, xitoy tilidagi 网 wǎng veb ham semantik kalka hisoblanadi. Uning to‘g‘ri ma‘nosi “baliq ovlash uchun to‘r” bo‘lsa keyingi ko‘chma ma‘nosi bo‘lsa inglizcha web so‘ziga ma‘nodosh bo‘lib “o‘rgimchak to‘ri” ni bildiradi. Masalan

最近宿舍的网络很不好，总是断网

Semantik kal‘kalar bir tilldan boshqa tilga so‘zlarning faqat ma‘nosini yoki bir necha manolaridan faqat bittasini o‘zlashtirish orqali yasaladi.

Masalan, xitoy tilidagi 病毒 bìng dú kompyuter virusi ingliz tilidan olingan virus so‘zining kalkasi hisoblanadi. U avval kasallik chaqiruvchi degan ma‘noda ishlatilgan bo‘lsa keyinchalik informatsion texnologilar rivojlanishi bilan u “kompyuterga zarar keltiruvchi dastur” ma‘nosida ham ishlatila boshlandi.

由于我的电脑中了病毒，我重装了系统.

鼠标 shǔbiāo sichqoncha (kompyuter qurilmasi) ingliz tilidan olingan sichqon so‘zining kal‘kasi hisoblanadi. U avval faqatgina hayvon nomi ma‘nosida ishlatilgan bo‘lsa hozirda bu so‘z kompyuter jihozlaridan birini ham ifodalab keladi.

Semantik o‘zlashtirmalar xitoy tili lug‘at tarkibi, xususan atamashunoslik sohasida boyishining eng muhim manbalaridan sanaladi. Umumiste‘mol so‘zlar ham kal‘ka qilinishi mumkin. Kal‘ka usuli ilm-fan, texnika va jamoatchilik hayotiga oid zamonaviy xitoy tili atamashunosligini yaratishning asosiy usullaridandir.

Etimologik o‘zlashtirish (kal‘ka usuli)

Kalkalashning ushbu turi xitoy tilida ingliz tilidagii atamashunoslikni o‘zlashtirishda keng foydalaniladi. Tadqiq qilinayotgan tillarning so‘z yasash tizimi bu usuldan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bunda biror bir so‘z bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashtirilayotganda so‘zning faqat manosi kuchiriladi.

Tarkibiy o'zlashtirmalar qatoriga soni, tarkibiy komponentlari va ularning manolari mos keluvchi soʻz yasovchi kalkalarni kiritish mumkin.

Etimologik kalkalar o'zga tildagi so'zning manosini ochib beradi.

电脑 **diànnǎo** kompyuter. 电 diàn elektr 脑 nǎo miyya soʻzma-soʻz tarjima qilinganda toʻkli miyya degan maʼnoni bildiradi.

复印机 **fùyìnjī** nusxa koʻchirish qurilmasi. 复印 fùyìn nusxa koʻchirmoq 机 jī texnik qurilmalarni ifoda etuvchi morfema. Birgalikda nusxa koʻchirish maʼnosini ifodalaydi.

打印机 **dǎyìnjī** printer. 打印 dǎyìn yozmoq (kompyuerda) 机 jī texnik qurilmalarni ifoda etuvchi morfema.

键盘 **jiàn pán** klaviatura. 键 jiàn qurmoq, barpo etmoq maʼnolarida qoʻllaniladi 盘 pán disk “盘” ieroglifi hisob soʻz boʻlib ham keladi u ingichka va dumaloq buyumlarga nisbatan qoʻllaniladi.

显示器 **xiǎnshìqì** monitor (display). 显 xiǎn aniq va yorqin degan maʼnoni anglatadi, 示 shì ifodalamoq va 器 qì moslama maʼnolarida keladi. Bular birgalikda manitor soʻzini ifodalaydi .

处理器 **chǔlǐqì** markaziy protsessor (CPU). 处理 chǔlǐ boshqarmoq , 器 qì moslama bular birgalikda moslamani boshqarmoq yaʼni kompyuter tili bilan aytganda markaziy protsessor soʻzini ifodalaydi.

扫描仪 **sǎomiáoyí** skaner. 扫描 sǎomiáo skaner qilmoq, 仪 yí qurilmalarni bildiruvchi morfema.

数据机 **shùjù jī** modem. 数据 shùjù raqamli va statistik maʼlumot degan maʼnoni bildiradi, 机 jī texnik qurilmalarni ifoda etuvchi morfema. Bular birgalikda modem soʻzini ifodalaydi.

光驱 **guāngqū** CDD (CD-ROM). 光 **guāng** bu soʻz xitoy tilida turli soʻzlar bilan birikib bir muncha maʼnoni bildiradi. 光驱 **guāngqū** buyerda 光 nur maʼnosida qoʻllanilgan, 驱 boʻlsa tezlik bilan, shoshmoq maʼnolarini anglatadi. 光+驱 (nur+tez) birgalikda (CD-ROM) yaʼni kompyuter moslamalaridan birini ifodalaydi.

主板 **zhǔbǎn** tizimli plata. 主 soʻzi bu yerda asosiy degan maʼnoni ifodalab kelmoqda 板 esa plata degan maʼnoni anglatadi. Birgalikda asosiy plata yaʼni kompyuter tili bilan aytganda tizimli plata manosini ifodalaydi.

Shunisi ahamiyatliki, oʻrganilayotgan ushbu sohada oʻzbek tili uchun etimologik kalkalash hos emas. Kompyuter atamashunosligi oʻzbek tilidagi barcha oʻzlashtirilgan soʻzlarda fonetik usul qoʻllanilgan. Xitoy tili uchun esa chet tili leksikasini oʻrganishda maʼno jihatidan oʻzlashtirish va tarjima orqali koʻplab yangi soʻzlar yaratish muhim oʻrinni egallaydi. Bu usulning ustun tomonlari shundaki fonetik usuldagidan koʻra kamroq morfemlar ishlatiladi va muomilaga oson kiritiladi.

2.3 Fonetik usul orqali yasalgan kompyuter atamalari

Har xil davlatlarda ilmiy va texnik taraqqiyotning turlicha kechishi, yangi paydo boʻlayotgan tushunchalarni nomlash ehtiyoji va xalqaro aloqalar keng rivojlanayotgani tufayli xorijiy soʻzlarning oʻzlashtirilishi istalgan til leksik tarkibining boyishi uchun xizmat qiluvchi eng muhim manbalardan biriga aylangan.

Chet tili leksikasi ikki uslub yordamida oʻzlashtiriladi. Bu uslublar kalʼka va fonetik uslublardir.

Fonetik oʻzlashtirish

Biror til oʻzida yoʻq boʻlgan biror tushuncha (yangi buyum yoki yangi gʻoya) ni anglatuvchi qandaydir soʻzga duch kelganda, quyidagi uch holatdan biri yuz beradi:

Bu soʻz bevosita oʻzlashtiriladi: bunda tilda tor maʼnodagi oʻzlashtirmalar hosil boʻladi, masalan, 极客 **jíkè** soʻzi ingliz tilidagi “geek” ning oʻzlashtirmasidir.

Tilda mavjud morfemalardan xorijiy soʻz namunasi boʻyicha yangi soʻz yasaladi: bunda tilda soʻz yasovchi kalkalar hosil boʻladi. Xitoy tilidagi 太字节

tài zìjié soʻzi ingliz tilidagi “terabyte” soʻzi namunasi boʻyicha yasalgan.

Tovush tarkibining oʻziga xosligi boʻgʻinlarning semantik fahmlanishi qonuni bilan oʻzaro taʼsiri natijasida xitoy tilidagi fonetik oʻzlashtirmalarning koʻpchiligi semantik toʻla boʻgʻinlarga egadir. Oʻzlashtirilgan soʻzlar fonetik oʻzlashishning turli darajadagi tovush oʻzlashtirmasi boʻlgani holda boʻgʻinlarining asl maʼnosiga mos keluvchi oʻziga xos maʼnolarga ega boʻladi.

声卡 **shēngkǎ** - tovush kartasi ingliz tilidagi “sound card” soʻzidan olingan boʻlib 声 shēng “sound” yaʼni tovush +卡 kǎ fonetik koʻchirma birgalikda tovush kartasi soʻzini ifodalaydi.

显卡 **xiǎnkǎ**- videoxotira ingliz tilidagi “video card” soʻzidan olingan boʻlib 显 xiǎn “video” +卡 kǎ fonetik koʻchirma birgalikda video xotira soʻzini anglatadi.

优盘 **yōupán** **flash** xotira. 优 yōu fonetik koʻchirma 盘 pán disk maʼnosini bildiradi. “盘” hieroglifi hisob soʻz boʻlib ham keladi u ingichka va dumaloq buyumlarga nisbatan qoʻllaniladi.

吉字节 **jízìjié**- kompyuter oʻlchov birligi ingliz tilidagi “gigabyte” soʻzidan olingan boʻlib 吉 jí fonetik koʻchirma +字节 zìjié ingliz tilidagi “byte” soʻzini maʼnosi olingan.

Xitoy tilidagi atamalarni tahlil qilib koʻrganimizda ulardagi oʻzlashtirmalar soni rus va oʻzbek tilidagiga koʻra ancha kam ekanligi aniqladik. Bu xolatni xitoy tilining murakkab fonetik tuzilishi bilan tushintirish mumkin, u atamalarni oʻzlashtirilishida katta noqulayliklar yaratadi. Oʻzbek tilining fonetik tuzilishi,

aksincha, atamashunoslik o'zlashtirishlar uchun qulay sharoit yaratadi. Biror bir tilda yangi xodisa yoki texnologiyalarni nomlash uchun aniq so'zlar bo'lmaganida ushbu tilda ingliz tilidan kirib kelgan o'zlashtirma so'zlar paydo buladi. O'zlashtirilgan so'zlarning paydo bo'lishiga yana bir sabab qilib ijtimoiy-psixologik omilni ham keltirish mumkin, bu omil jamiyat tomonidan ma'lum bir tarixiy davrda ma'lum bir yangilikni qabul qilinishi bilan tushintiriladi. Tadqiqotlar jarayonida shu aniqlandiki rus va o'zbek tilida mavjud fonetik o'zlashtirmalar xitoy tilida kalkalar orqali ifodalanadi, ya'ni fonetik usul bilan o'zlashtirish jadalligi o'zbek va hitoy tillarida turlichadir. Fonetik usulda o'zlashtirish jadalligi turlichaligi ushbu tillar fonetik tuzilishi turlicha bo'lganligi bilan boholanadi.

Xulosa

Hozirgi zamon xitoy tili kompyuter atamalarini leksik semantik va struktur jihatdan o'rganish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

Xitoy tili kompyuter atamalari hali to'la shakllangan deb bo'lmaydi, chunki sinonimlarni ko'pligi va ayrim so'zlarni o'rnida xali xanuzgacha inglizcha variantlari qo'llanib kelishi bunga dalildir. Bu holatni biz o'zbek tilida ham kuzatishimiz mumkin. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga ham ancha bo'lganligiga qaramay, afsuski, hozirgi kunga qadar kompyuter atamalari to'laligicha shakllanib ulgurmagan. Bizning bu fikrimizning dalili sifatida V.A. Chjenning "Язык техника" nomli tashqi savdo va texnika atamalar izohli lug'atini keltirishimiz mumkin. Bu kitobning nashr qilinishi sababi, bu hozirgi kunda yangidan yangi atamalarning paydo bo'lishi, ularning soni tinmay o'sib borishi sabab bo'lgandir. Ushbu lug'atda, jahon bozorida ishlatiladigan atamalarga juda aniq va shu bilan bir qatorda sodda izoh berilgan. Atamaning kelib chiqishi, uning asl ma'nosiga ham to'xtab o'tilgan. Ammo afsuski, kitobning Toshkentda nashr etilganligiga qaramay, ushbu izoh va tasniflar faqatgina rus tilida berib o'tilgan.

Balki bu hozirgi zamondagi savdo sotiqning juda tez suratlar bilan rivojlanayotganligidandir, va bundan keyinchalik ko'pchilik umumjahon atamalar paydo bo'lishi, ya'ni kompyuter atamalari etaloni paydo bo'lishining boshlanishidir.

Kompyuter atamalarini leksik semantik jihatdan tasniflashda shartli ravishda 8 turga bo'lish tavsiya etiladi. Nima uchun "shartli" degan so'zni qo'shmoqdamiz, chunki, atamalarni ma'lum guruhga bo'lganimizga qaramasdan, ularning juda ko'pchilik qismi bir necha guruhga mansubligi aniq bo'ldi. Bundan tashqari bizning izlanishimizning ob'ekti 40 ta atamadan ziyodroq xolos, aslida esa atamalar soni bir necha mingtaga yetsa ajab emas. Biz atamalarni biron bir guruhga

ajratadigan bo‘lsak birinchi navbatda ularning tub va eng asosiy ma’nosiga ko‘ra ma’lum bir guruhga ajratganmiz.

Foydalingan adabiyot ro'yxati:

1. F.D. Bahromov .Axborot texnologiyalari. Sharq nashriyot matbaa aksidorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent 2012
2. Aripov M., Begalov B, Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. Toshkent 2009
3. Aripov M., Xaydarov A. Informatika asoslari. Toshkent 2002
4. Xolmatov T., Taylaqov N., Nazarov U. Informatika. –Toshkent, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat Ilmiy nashriyoti” 2003
5. Sattorov A. Informatika va information texnologiyalari. Toshkent 2002.
6. Семенов А.Л., «Лексика китайского языка», Москва, 2000 г
7. Фролова О.П., «Слово образование в терминологической лексике современного китайского языка», Новосибирск, 1981 г.
8. Горелов В.И. Лексикология китайского языка.- М.: “Просвещение”, 1984.
- 9.贺阳。《性质形容词句法成分功能统计分析》，胡明扬主编《词类问题考察》，北京语言学院出版社，1996。
- 10.黄金城。《汉语语序研究》，华东师范大学硕士毕业论文，1984。
11. 《动补结构的多义性》，《中国语文》第1期，1986。
12. Program Files.ABBYY Lingvo x5. / 电子词典。
13. 现代汉语词典 / 商务印书馆。
14. 现代汉语。（重订本）- 上海教育出版社，2002年。
15. 现代汉语词典（修订本）- 北京，2002年。
16. “汉俄科技词典”，商务印书馆与俄语出版社北京-莫斯科 1995 年

Internet saytlari:

1. www.google.com.cn
2. www.chinagrammar.cn
3. www.filology.ru
4. www.wikipedia.ru
5. www.bkrs.info
6. www.baidu.com

Ko`p qo`llaniladigan kompyuter atamalari

中央处理单元 zhōngyāng chǔlǐ dānyuán - markaziy protsessor

主板 zhǔbǎn - tizimli plata

内存 nèicún - ichki xotira, tezkor xotira

软盘 ruǎnpán - disket

硬盘 yìngpán - qattiq disk (vinchester)

光盘驱动器 guāngpán qūdòngqì - CD-ROM

监视器 jiānshìqì - monitor, ekran

键盘 jiàn pán - klaviatura

鼠标 shǔbiāo - sichqoncha

芯片 xīnpìàn - chip

集线器 jíxiànqì - konsentrator (hub)

调制解调器 tiáozhìjiětiáoqì - modem

不间断电源 bù jiànduàn diànyuán - UPS

安装 ānzhuāng - o`rnatmoq

卸载 xièzài - o`chirmoq, yo`q qilmoq

操作系统 cāozuò xìtǒng - operatsion tizim

退出 tuìchū - chiqish

复制 fùzhì - ko`chirmoq

剪切 jiǎnqiē - kesib olmoq

粘贴 zhāntiē - qo`ymoq

删除 shānchú - o`chirmoq, yo`q qilmoq

选择 xuǎnzé - tanlamoq

查找 cházhǎo - qidirmoq

全选 quánxuǎn - hammasini belgilamoq

替换 tìhuàn - almashtirmoq

撤消 chèxiāo - bekor qilmoq

重做 chóngzuò - qayta ishlamoq

程序 chéngxù - programma

前一步 qián yī bù - ortga qaytish

下一步 xià yī bù - keyngisiga o'tish

结束 jiéshù - tugatish

用户 yònghù - foydalanuvchi

点击 diǎnjī - bosmoq (sichqonchani)

设置 shèzhì - sozlamog

更新 gēngxīn - yangilamoq

视图 shìtú - ko'rinish

配置 pèizhì - moslama

文档 wéndàng - hujjat, fayl